

XORIJIY TIL O'QITUVCHILARINING PROFESSIONAL-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METOD VA USULLARI

Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti

Suyunova Sevara Saloxiddin qizi

saloxiddinovnasevara6@gmail.com

Ilmiy rahbar Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrası dotsenti

Yadgarova Ozoda Ibragimovna

yadgarovaozoda26@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada xorijiy til o'qituvchilarining professional-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim metod va usullarining nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Unda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy muloqot malakalarini shakllantirish jarayonida an'anaviy va noan'anaviy (interaktiv) metodlarning o'rni, ularning tasnifi va samaradorligi yoritib beriladi. Tadqiqot davomida pedagogika fanida e'tirof etilgan ta'lim metodlari tasnifi, xususan, transmissiv, transaktiv va transformativ yondashuvlar tahlil qilinib, ularning professional-kommunikativ malakalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, xorijiy pedagogik tajribaga asoslangan holda "Suggestopedia", "Jigsaw reading", "Socratic seminar", "Philosophical chair" kabi zamonaviy interaktiv metodlarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati asoslab beriladi. Maqola xorijiy til o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida interfaol ta'limni samarali tashkil etish, talabalar faolligi va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlarni tanlash bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: xorijiy til o'qituvchisi, professional-kommunikativ kompetentlik, ta'lim metodlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar.

Hozirgi sharoitda bo'lajak o'qituvchilarning professional-kommunikativ malakalarini shakllantirish jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash ta'limda yuqori natijalarga olib keladi. Ta'lim metodlarini har bir darsning tarbiyaviy va ta'limiy maqsadidan kelib chiqib tanlash muhim ahamiyatga ega.

"An'anaviy ta'lim shaklini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash talabalar mahorati darajasini oshiradi, o'qituvchi-talaba, talaba-o'qituvchi munosabatlaridagi muloqot qobiliyatlari va interaktiv harakatlarning

rivojlanishiga sabab bo'ladi" [1]. Buning uchun dars jarayoni mohirona tashkil qilinishi, pedagog tomonidan talabalarning qiziqishi va faolligi doimiy rag'batlantirilib turilishi, mavzularni kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini tushuntirib berishda innovatsion metodlarni



qo'llash va talabalarni berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu metodlar qo'llanilganda o'qituvchi talabani darslarda faol ishtirok etishga undaydi.

Ta'lim metodlari deyilganda, "o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilar o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish yo'llari tushuniladi"[2]

Ta'lim usuli – "ta'lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni, metodlar bilan usullar munosabati o'zaro bir-biriga bog'langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi" [3]. Bir xil metodik dasturlardan turli usullarda foydalanish mumkin. Aksincha, bir xil usulni turli o'qituvchilar har xil tushuntirishlari mumkin.

Umumiy ravishda pedagogika fanida ta'lim metodlari tasnifi quyidagicha keltiriladi [4]:

1. An'anaviy (manbasiga ko'ra) ta'lim metodlari (E.I.Golant, N.M.Verzilin va bosh.)
2. O'quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko'ra ta'lim metodlari (I.YA.Lerner va M.N.Skatkin).
3. Asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra ta'lim metodlari (M.A.Danilov va B.P.Esipov).
4. Ta'limning binar metodlari (M.I.Maxmutov).
5. Yaxlit yondashuv bo'yicha ta'lim metodlari (Yu.K.Babanskiy).
6. Ta'limning interfaol metodlari

Amerikalik psixologlar R.Karnikau va F.Makelrouning [5] tadqiqotlariga ko'ra, shaxsning jismoniy va aqliy imkoniyatlari olingan bilimlarni turli darajalarda saqlab qolish imkonini beradi. Odam manbani o'zi o'qiganda 10 %; axborot tinglaganda 20 %; voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rganda (illyustratsiya) 30 %; voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rganda va ular haqidagi ma'lumotlarni tinglaganda 50 % (namoyish); ma'lumot uzatganda 80 % (gapirishi, bilimni namoyish etadi); olgan bilimlarini (axborot, ma'lumot) o'z ishida qo'llashda 90 % ma'lumotni yod olish qobiliyatiga ega .[6]

G'arb pedagogikasida bo'lajak o'qituvchilarni professional kommunikativ malakalarini shakllantirishga yordam beruvchi zamonaviy metodlar ta'limiy faoliyatni loyihalashning asosi bo'lib hizmat qiladi. Ushbu metodlarni tanlab olishga qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular: ta'lim oluvchilarning rivojlanganlik darajasi, ta'lim beruvchining maqsadi va kutilmalari, tashqi ijtimoiy muhit (vaqt, jismoniy ustunovka va resurslar). Umuman olganda, xorijda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari professional-kommunikativ malakalarini shakllantirishga yordam beruvchi zamonaviy metodlarning 4 ta turkumi mavjud bo'lib, har bir o'qituvchi



pedagogik faoliyati mobaynida ularning deyarli barchasini qo'llab o'z kasbiy imkoniyatlarini sayqallab boradi. Bular[7]

1. An'anaviy–didaktik metodlar: verbal, odatiy ma'ruzalar yoki taqdimotlar shaklida (bo'lajak mutaxassislarning nutqiy ko'nikmalari, kommunikatsion malakalarini rivojlantiradi);
2. An'anaviy–modellashtirish metodlari: vizual, demonstratsiya yoki amaliy ishlar shaklida (bo'lajak mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlari, ilmiy va umummadaniy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi);
3. Boshqaruvli–noan'anaviy yoki interaktiv metodlar: hamkorlikdagi, individual yoki guruh shakllarda tashkil etiladi va bo'lajak mutaxassislarning ta'lim oluvchilar xulq atvorini boshqarish, ular bilan amaliy muloqotda bo'lish, refleksiv malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi;

4. Dialogik–noan'anaviy yoki interaktiv metodlar: sof muloqot asosiga qurilib kommunikatsion faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

An'anaviy usullardan foydalanganda o'qituvchi o'quvchilarga tayyor bilim beradi yoki ko'nikmalarni namoyish etadi, noan'anaviy usullardan foydalanganda o'qituvchi yo'nalishni belgilaydi, lekin to'g'ridan-to'g'ri o'rgatmaydi, talabalar tarkibni mustaqil tushunadilar.

Interaktiv shakldagi metodlar qo'llanilganda talabalar o'zaro axborot yoki material almashadilar. O'qituvchi esa yo'naltiruvchi va tashkillashtiruvchi vazifalarini bajaradi. Empirik shakldagi metodlar qo'llanilganda talabalar o'zlari bevosita jarayonda ishtirok etadilar va buni his etadilar. Mustaqil ish shaklidagi metodlarda talabalar o'qituvchining nazorati va ko'magisiz mavzuning ayrim jihatlarini o'zaro muhokama qiladilar. Ba'zi nazariyotchilar ushbu shakllarni 3 tagacha qisqartirishni ham taklif etadilar.

Bular:

- Transmissiv
- Transaktiv
- Transformativ metodlardir.

Transmissiv yoki an'anaviy shaklda o'qituvchi to'g'ridan-to'g'ri yo'nalish beradi (ma'ruza o'qish yoki demonstratsiya ko'rinishida).

Transaktiv yoki noan'anaviy shaklda o'qituvchi va talabalar dialog olib borishlari mumkin, biroq to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishlar berilmaydi.

Transformativ – an'anaviy va noan'anaviy shakllar birikmasi bo'lib, bunda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi bir-birlarining ichki dunyosiga kirib borishga harakat qilishadi.

“Suggestopedia”– bugungi kunda AQSHda boshqa bir qator malakatlarda bo'lgani kabi “sugestopedia” nomi bilan tanilgan metodika keng rivoj topdi. Ta'limni intensivlashtirish va gipnoz bilan bog'liq bo'lgan bu metod turlicha baholangan, tanqid ostiga ham olingan,



olqishlangan ham. Biroq uning natijalari hayratlanarlidir. Suggestopedia asosida dars o‘tadigan pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o‘tadi. Bunda ta’lim oluvchilarni yangi tilni tezkorlik bilan o‘rganishlari uchun maksimal qulay sharoit yaratiladi. Har bir o‘quvchi o‘zining g‘ayrioddiy lingvistik qobiliyatlari borligiga ishontiriladi, dars harakatda va o‘qishlar yordamida o‘tkaziladi, shuningdek materialni qabul qilishni engillashtirish maqsadida musiqiy ta’sir ko‘rsatiladi, doimiy ravishda multimedia vositalaridan foydalaniladi va hokazo. Mazkur metod qo‘llanilganda tilni o‘rganish tezligi 40-50 barobar oshadi, chunki kuniga yod olinadigan so‘zlar va jumlar soni odatiy metodikadagi raqamlardan ancha ko‘p (qayd etilgan rekord bir kunda mingga yaqin so‘z va ibora).

Zamonaviy ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning professional kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishda quyidagi zamonaviy usullar

muhim rol o‘ynaydi:

“Jigsaw reading” – metodi talabalarning o‘qish, muloqot va xulosa chiqarish qobiliyati kabi kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ishlatiladi. Ayniqsa, qisqa hikoyalar, matnlar va maqolalar bilan ishlashda bu usul juda samaralidir. U quyidagicha amalga oshiriladi. Talabalar ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhga hikoyaning birinchi qismi, ikkinchi guruhga hikoyaning ikkinchi qismi beriladi. Talabalar o‘zlariga berilgan hikoyaning qismini o‘qib yaxshilab eslab qolishlari kerak bo‘ladi. So‘ng har bir talabaga narigi guruhdan juftliklar tanlanadi. Har bir juftlik bir biriga o‘qigan hikoyasini so‘zlab beradi. Ish yakunida har bir juftlikda to‘liq hikoya paydo bo‘ladi. Talabalar hikoyani eslab qolishlari uchun ayrim qaydlarni amalga oshirishlari mumkin. O‘yin so‘ngida mavzuni mustahkamlash uchun savol-javob qo‘llash ham mumkin. Matn ustida ishlashning bu turini boshqacha ko‘rinishda ham tashkil qilish mumkin. Birinchi guruh talabalariga matn undagi so‘z yoki jumlar o‘chirilgan xolda beriladi. Ikkinchi guruh a’zolariga butunlay boshqa so‘z va jumlar

o‘chirilgan holda beriladi. Har ikki guruh a’zolari savol berish yo‘li bilan o‘z matnini to‘ldirib olishi kerak.[8]

- “Socratic seminar” ushbu metod mashhur faylasuf Suqrotning behisob savollar berish yordamida ta’lim berish usuliga asoslangan. O‘qituvchi talabalarga kerakli mavzu yoritilgan matn va tayyorlanish uchun vaqt beradi. O‘qituvchi ketma-ket savollar berish natijasida talabalarning mavzuni qay darajada tushunganligini bilib oladi.[9]

- “Philosophical chair” metodi debatga o‘xshaydi. Talabalarga asosiy mavzu va savollar beriladi. Ular bildirilgan fikrga qo‘shilishlari, norozi bo‘lishlari yoki betaraf qolishlari mumkin. Bu metod talabalarning bir birlari bilan jonli munozara o‘tkazishga bir-birlaridan yangi narsalar



o'rganishlariga asoslangan. Har bir talaba markazda joylashgan stulda o'tirib navbatma-navbat o'z fikrlarini bildiradi. Keyin bahs – munozara boshlanadi.[10]

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, bo'lajak o'qituvchilarni professional-kommunikativ malakalarini shakllantirishga yordam beruvchi zamonaviy metodlar muammosining nazariy jihatlarini batafsil o'rganish, bu boradagi harakat muvaffaqiyatini ta'minlash omillaridan biri mazkur ta'lim muassasalarida interfaol ta'limni tashkil etilganlik holatini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Yuqorida aytib o'tilgan zamonaviy usullar bo'lajak o'qituvchilarning professional-kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishga, “oliy o'quv yurtlarida ta'lim tizimi va uning samaradorligini oshirishga, o'qituvchilar va talabalar o'rtasida hamkorlikni o'rnatishga, mafkuraviy va ma'naviy hamjihatlikka erishishga, umumiy maqsadga erishishga, har bir talabaning ichki salohiyatini ro'yobga chiqarishga yordam beradi” [1.2]. Shaxsni namoyon qilish uchun zarur sharoit va muhitni yaratish uchun samarali foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=41180719>
2. Педагогика: Учебник / Л. П. Крившенко, М. Е. Вайндорф- Сысоева и др.; Под ред. Л. П. Крившенко.С.278
3. Педагогические технологии: понятия, принципы и методы внедрения: Сб. материалов из Интернета./ Сост. С.Махкамова. – Т., 2003. – С-26.
4. Сластенин В.А. и др. Педагогика Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В. А. Сластенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; Под ред. В.А. Сластенина. М.: издательский центр “Академия”, 2013. - 576 с.
5. 5.Karnikau R. Communication for the safety professional [Text] /R. Karnikau, F. McElroy – Chicago, 1975
6. <http://yomi.uz/wp-content/uploads/2020/03/Maqolalar- toplami.pdf>
7. 7.What teachers need to know about teaching methods. Peter WestWood, Camberwell, Vic. : ACER Press, 2008.-p.16-36
8. 8.Aronson E. The Jigsaw Classroom. – California: Sage view Edition, 2008. – P. 197
9. 9.Moeller M., Moeller V. Socratic Seminars and Literature Circles. – New York, 2001. – P. 208.
10. 10.Matthew C. H. Philosophical Methodology: The Armchair or the Laboratory – New York, 2013. – P. 480
11. 11. Yadgarova O.I Bo'lajak o'qituvchilarning professional-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda psixologik treninglardan foydalanish imkoniyatlari. – Samarqand:Samarqand davlat chet



tillar instituti,2023

12. 3 Педагогика: Учебник / Л. П. Крившенко, М. Е. Вайндорф- Сысоева и др.; Под ред. Л. П. Крившенко.С.278

13. 6.Yadgarova O.I Bo'lajak o'qituvchilarning professional-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda psixologik treninglardan foydalanish imkoniyatlari. – Samarqand:Samarqand davlat chet tillar institute,2023.

